

## NASRIY MATNDA MILLIY-MADANIY FRAZEOLOGIZMLARNING QO'LLANISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14163596>

**Muqaddas Oqmamatova**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent  
davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
mustaqil izlanuvchisi*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada iste'dodli adiblar Nazar Eshonqul va Ulug'bek Hamdamning asarlaridan olingan misollar orqali frazeologik birliklarning rang komponentlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz tilidagi frazeologizmlar tarkibidagi rang komponentlari o'zbek tilidagi misollar bilan qiyoslab beriladi.

### **Kalit so'zlar**

psixologik, ijtimoiy-etnik, leksik qatlam, frazeologik birliklar, obraz, milliy kolorit, ekvivalentlik, analog frazeologizmlar, kontekst.

### **Abstract**

This article analyzes the color components of phraseological units through the examples taken from the works of talented writers Nazar Eshonqul and Ulug'bek Hamdam. Also, the color components of phraseology in English are compared with examples in Uzbek.

### **Keywords**

psychological, socio-ethnic, lexical layer, phraseological units, image, national color, equivalence, analogous phraseology, context.

Milliylik – har bir xalqning, millatning tub ildizlari bilan bog'liq bo'lib, bu jihat mazkur xalqning an'analarida, urf – odatlarida, shuningdek, tili va adabiyotida yaqqol sezilib turadi. Milliylik shu elning madaniyatida, san'atida ham ildiz otadi. Yillar davomida bu an'analar takomillashib borishi ham ehtimoldan xoli emas.

“Har bir millat o'z tili, madaniyati, urf-odati va an'analariga, o'ziga xos yashash tarzi va psixologik xususiyatlariga ega. Tarixan tashkil topgan barqaror ijtimoiy – etnik birliklarni, ya'ni millatlar va elatlarni barqaror ijtimoiy birliklardan, masalan, ijtimoiy sinflardan farqlovchi tomonlar, xususiyatlar, ma'naviy, ruhiy va

madaniy qirralar hamda tafovutlar majmui milliylik deb yuritiladi.” [O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T:2006, Jild:2, B:593]

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, milliylikni ifodalovchi milliy-madaniy leksik qatlamning eng faol turi bu – frazeologizmlar. Frazeologizmlarda milliy-madaniy ruh to’g’ridan-to’g’ri, obrazli tarzda aks etadi. Ayniqsa, milliy kolorit mazkur birliklar orqali o’ziga xos tasvir yo’siniga ega bo’ladi. Bu tasvir millat xarakteri, dunyoqarashi, qadriyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Aslida ingliz tilidan o’zbek tiliga badiiy asarlar tarjimasida borasida ham hali yetarlicha tajribalar bor deyishga ertadek tuyuladi, nazarimizda.

Ayniqsa, tarjimalar talqini borasidagi ilmiy izlanishlar ham juda oz. Chunki mustabid tuzum davridagi tarjimalar ham asosan rus tili orqali amalga oshirilgan.

“Ingliz – o’zbek adabiy aloqalari hali yetarlicha ishlanmagan. “Bu borada Q.Musayev, M.Baqoyeva, D.G‘ulomova tadqiqotlarini aytib o’tish mumkin.” [Begoyim Xolbekova. Inglizchadan o’zbekchaga tarjima tarixiga bir nazar. O’zbek tili va adabiyoti. T:2011, Son:3, B:71] Bunda Q.Musayev “Tarjima nazaryasi asoslari” [T:2005], M.Baqoyeva “Angliya, AQSh adabiyotidan o’zbek tiliga she’riy tarjima va qiyosiy she’rshunoslik muammolari” [D.D T:2004], D. Gulyamova “Драматургия Шекспира на узбекском языке” [K.D. T:1971] kabi ilmiy asarlar nazarda tutilgan.]

Tarjimada ruhan yaqinlik va fikrlar mushtarakligi bo’lishi uchun, shubhasiz, har ikki xalqning diniy qarashlari, milliy yaqinlik bo’lishi, albatta, lisoniy jihatdan ham yaqinlik bo’lsa, tarjima nisbatan oson kechadi.

Biz yuqorida ingliz tilidan o’zbek tiliga tarjima masalalariga qisman to’xtalib o’tdik. Ammo o’zbek tilidan ingliz tiliga amalga oshiriladigan tarjimalarda jarayon bir muncha murakkabroq bo’lishi mumkin. Chunki bunday vaziyatda ingliz tilining imkoniyatlarini ham o’zbek tarjimoni o’z tili darajasida idrok etishi, ifoda yo’sinida eng mukammal yo’lni tanlashi lozim va aksincha frazeologik birliklar tarjimasida esa ma’no jihatdan bir-biriga mos kelishi, ya’ni ekvivalentligi yoki qisman mosligi ham bo’lishi mumkin.

“Ekvivalent va analog frazeologizmlar haqida turlicha qarash, turlicha tarjima usullari, shuningdek, bir-biriga qarama-qarshi bo’lgan ta’riflar mavjud. Ba’zi tadqiqotchilar frazeologik ekvivalentga har ikki tilda ma’nosi mos keladigan frazeologizmlarni kiritisa, ayrimlari kontekstdan tashqari ikki va undan ortiq tilda mazmun va shakl jihatdan mos keluvchi frazeologizmlar kiradi deb hisoblaydi va konteks bilan bog’liq frazeologizmlarni analog frazeologizmlar tipiga kiritadi.” [Umarxodjayev M.M. Принципы составления многоязычного

фразеологического словаря. АКД. Т:1972. В:27] [Salyamov T. Лексико-фразеологического вопросы художественного перевода. АКД. Т:1964, В:31]

Shu bois fikrlarimizni asoslash maqsadida imkon qadar tahlil uchun maishiy, tarixiy hamda hajviy mavzulardagi asarlardan kontekstlar tanladik. Masalan:

“Ta’rifni Muhsina to’qigan, mendan g’azablanib, meni la’natlab, bechora Oliyanning go’riga g’isht qalab to’qigan. Bilmaydiki, go’ringda to’ng’iz qopgur Yaxshiboyev u paytlarda ko’p pokiza edi...” [M.M.Do’st. Lolazor. T:1998, B:11]

Yuqorida keltirilgan kontekstda “go’riga g’isht qalamoq”, “go’ringda to’ng’iz qopgur” kabi ikkita frazeologik birikma bitta gap tarkibida qo’llangan bo’lib, bu birliklar asosan haqorat, qarg’ish ottenkalariga ega. Bu frazeologik birliklardan birinchisi birovni orqasidan haqorat qilmoq, yomonlamoq ma’nosini bildiradi. “O’zbek tilining izohli lug’ati” da bu leksik birlikka quyidagicha ta’rif beriladi: “go’riga g’isht qalamoq. Birovni orqavarotdan so’kmoq, haqorat qilmoq, qoralamoq.” [O’zbek tilining izohli lug’ati. T:2006. Jild;I B:531] Ikkinchi ibora ham xuddi shu kabi haqorat ma’nosini anglatadi.

Ingliz tilidagi tarjimalarda esa mazkur frazeologik birlikga sinonim tariqasida “dish the dirt” ni tavsiya etish mumkin. Bu iboraning ingliz tilidagi ma’nosi “to tell the people unpleasant or shocking personal information about someone”, ya’ni “kimgadir bir inson haqida hayratlanarli shaxsiy ma’lumotlarni aytish” deya izohlanadi. Ingliz tilidagi “dish the dirt” frazeologik birligi “go’riga g’isht qalamoq” frazeologik birligi ma’nosiga ekvivalent deya olmaymiz, chunki tarjimadagi o’xshashliklar har doim ham kontekstdagi ma’noni ochib bera olmaydi.

Yoki: “Endi yoshligimiz qoldimi, xonim, bir oyoq to’rda-yu, bir oyoq go’rda, ko’rganimizni ko’rdik, oladiganimizni oldik, go’yo hayotdan nelarnidir undirganday bo’ldik, obro’, shuhrat, boylik...” [M.M.Do’st. Lolazor. T:1998, B:23]

Demak, “bir oyoq to’rda-yu, bir oyoq go’rda” leksik birligi esa: “bir oyog’i to’rda-yu, bir oyog’i go’rda yoki yo’lidan go’ri yaqin. O’lay deb turibdi, o’limi yaqin (o’limi yaqin bo’lib qolgan qari odam haqida) [O’zbek tilining izohli lug’ati. T:2006. Jild;I B:531] tariqasida izohlanadi.

Ingliz tilida esa mazkur birlikka mos ravishda quyidagi muqobilni taklif qilish mumkin: “to have one foot in the grave” frazeologik birligi “bir oyog’i go’rda” degan ma’noni anglatadi va ingliz tilida “if you say that someone has one foot in the grave, you mean that they are very old or very ill and will probably die soon”, ya’ni “agar siz birovning bir oyog’i qabrda desangiz, u juda qari yoki juda kasal va ehtimol yaqinda vafot etishi mumkinligini anglatadi” kabi ma’nolar da izohlanadi. Ushbu birikma tarjima jarayonida istalgan kontekstda “bir oyog’i go’rda”

frazeologik birligini ochib berish uchun muqobil variant sifatida qo'llanishi mumkin.

Shuningdek, tarixiy asarlardan ham misollarni ko'rib chiqamiz:

"Hayhot, uning so'nggi umidi ham chil-chil sindi". [O.Yoqubov. Ulug'bek xazinasi. T:2007, B:23]

Yuqoridagi kontekstda "umidi chil-chil sindi" leksemasi ko'chma ma'noda qo'llangan bo'lib, bu leksemaning o'z ma'nosi tovushga taqlidni ifodalaydi. Ammo jumla ibora sifatida quyidagicha ta'riflanadi: "chilparchin (forscha; qirqqa bo'lingan, parchalangan) ravish. parcha-parcha, mayda-mayda, chil-chil. Chilparchin bo'lmoq. [O'zbek tilining izohli lug'ati. T:2006. Jild:I B:485] Yoki endi umid qolmadi ma'nosini ifodalaydi. Mazkur frazeologik birlik tarjimasida ingliz tilida keng qo'llanadigan quyidagi birliklarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi: "force", "crack". "Crack" so'zi Lutfullo Jo'rayevning "Inglizcha-o'zbekcha lug'at"ida "sindirimoq, yormoq, parchalamoq" deya tarjima qilingan. "Force" so'zi esa aynan shu kitobda "buzib (sindirib) ochmoq, sindirimoq, parcha-parcha (tilkapor) qilmoq" deya izohlangan. [Jo'rayev Lutfilllo. English-uzbek dictionary. T:2008] Bundan ko'rinib turibdiki, "force" hamda "crack" so'zlarining aynan qaysi biri tarjimada "chil-chil sinmoq" ma'nosida qo'llanishi aynan kontekstda kelgan ma'noga ko'proq bog'liq bo'ladi.

"Ilonning yog'ini yalagan shaytoni basir! Sen mavlono Muhiddinning ojizasi qayga yashiringan - bilasen! Bilib turib mendan sir tutasen!" [O.Yoqubov. Ulug'bek xazinasi. T:2007, B:311]

Yuqoridagi kontekstda esa tilda faol qo'llanadigan mashhur frazeologik birlik, ya'ni "ilonni yog'ini yalagan" leksik birligi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da: "ilonni yog'ini yalagan. O'ta ayyor, ustomon" ma'nosini ifodalaydi. [O'zbek tilining izohli lug'ati. T:2006. B:198] Ushbu frazeologik birikmaning ingliz tilidagi ekvivalenti "As slippery as an eel"dir. [Xidirova Mahfuza, Pardayeva Nafisa. Translation issues of phraseological units used with animal names from English into uzbek. Scientific journal Impact Factor. Issue11. December 2021. B:1061]

Ko'rinadiki, zamonaviy adabiyotda ham, tarixiy asarlarda ham birdek, frazeologik iboralar asar qahramonlari, personajlar dunyoqarashini ochib berishda, milliy koloritni yoritishda eng muhim manba bo'lib xizmat qiladi va tarjima jarayonida ularning har ikkala tildagi sinonimlarini, albatta, nazardan chetda qoldirmaslik lozim.

Endi hajviy asarlar misolida mazkur holatni tahlil qilamiz:

“Fahmladimki, boshi ochiq. U yog‘ini so‘rasangiz, mana, kaminayam uch yarim yildan beri sip-silliq tulman.” [Anvar Obidjon. Baloga qolgan futbolchi. T:2010, B:5]

Yoki:

“-Iye-iyel-og‘zini tanobi qochib, muloyim eshildi u.” [Anvar Obidjon. Baloga qolgan futbolchi. T:2010, B:21]

Yuqoridagi “boshi ochiq” turg‘un birikmasi “Izohli lug‘at”da: Boshi ochiq (yoki bo‘sh) 1) parangi tashlagan, parangi yopinmaydigan; ochiq; 2) unashtirilmagan, uylanmagan yoki ajrashgan” ma‘nolarini anglatadi.

Ushbu birlik uchun ingliz tilidagi “bare foot” iborasini oladigan bo‘lsak, u so‘z birikmasi sifatida tarjima qilinganda “yalang oyoq, oyoq kiyimsiz” ma‘nolarini ibora sifatida esa “hali unashtirilmagan, bo‘ydoq” ma‘nosini beradi va uning kelib chiqish tarixi o‘rta asrlarning so‘ngiga borib taqaladi. Endi esa nima uchun aynan “bare foot” iborasi hali turmushga chiqmagan qiz uchun ishlatilganligini ko‘rib chiqamiz. Buning sababi o‘rta asrlarda kuyov tomondan qiznikiga mehmonga kelgan qarindoshlar bo‘lajak kelinga oyoq kiyim sovg‘a qilishgan, shuning uchun ham aynan shu ibora aynan shu ma‘noda qo‘llanilgan.” [Dilshoda Ikromjonovna va boshqalar. Zamonaviy ingliz va o‘zbek tillarida frazeologizmlarning kontekstual ma‘nosi va tarjima masalalarining xususiyatlari. Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016). B:281] Bu ibora “boshi ochiq” iborasiga ekvivalent bo‘lib, uning kelib chiqishi ham ingliz tilidagi muqobiliga o‘xshash.

“Og‘zining tanobi qochib” frazeologik birligi esa: “og‘zining tanobi qochib. Juda xursand bo‘lmoq; suyunib ketmoq; iljaymoq” ma‘nosida qo‘llanadi. Bu frazeologik birlikni o‘zbek tilida “og‘zi qulog‘ida” frazeologik birligi bilan ham sinonim tarzida qo‘llaymiz.

Ingliz tilida esa mazkur birlikning ma‘nolarini ifodalaydigan ko‘plab frazeologik birliklar mavjud bo‘lib, ular quyidagilar:

1. the size of the mouth ran away
2. on cloud nine
3. like a dog with two tails
4. full of the joys of the spring
5. happy as Larry
6. on top of the world
7. over the moon

8. in seventh heaven [Abbosova N. Ingliz tilini chet tili sifatida o‘rganuvchi talabalarda frazeologik pragmatic kompetensiyani shakllantirish. Educational Research in Universal Sciences. V:2. Issue:9. 2023. B:143]

Mazkur frazeologik birliklar "xursand bo'lmoq" ma'nosini anglatganda, kontekstda qo'llanganda qo'shimcha ma'nolar (intensifikatorlik)ni yuklaydi.

Milliy-madaniy ruh bilan sug'orilgan, milliylikni o'zida singdirgan har qanday lisoniy birlikning tarjimadagi nozik jihatlari, albatta, ularning sinonimik qatorini yaxshi bilish bilan bog'liq. Binobarin, tarjimda ozgina chalkashlik ham ma'noni tamoman o'zgartirishi ehtimoldan xoli emas.

Demak, tarjimon har ikki tildagi frazeologik birliklarda singdirilgan milliylikni his eta olishi, uni bor yuki bilan tarjima qilishi uning mahoratiga bog'liq ekan.

Ona tilining lisoniy imkoniyatlarini o'z qatlarida singdirgan iboralar davr o'tishi bilan takomillashib, boyib boraveradi.

Muhimi, ana shu boyliklarni dunyo adabiyoti ixlosmandlariga boricha ko'rsata olishdadir.

Tarjimon badiiyatning sinchkov ustasi bo'lsagina tarjima, shubhasiz, ikkinchi bir tilda ikkinchi umrini yashaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. T:2006, Jild:2, B:593
2. Begoyim Xolbekova. Inglizchadan o'zbekchaga tarjima tarixiga bir nazar. O'zbek tili va adabiyoti. T:2011, Son:3, B:71
3. Umarxodjayev M.M. Принципы составления многоязычного фразеологического словаря. АҚД. Т:1972. В:27
4. Salyamov T. Лексико-фразеологического вопросы художественного перевода. АҚД. Т:1964, В:31
5. M.M.Do'st. Lolazor. T:1998, B:11
6. O.Yoqubov. Ulug'bek xazinasi. T:2007, B:23
7. Jo'rayev Lutfillo. English-uzbek dictionary. T:2008
8. Xidirova Mahfuza, Pardayeva Nafisa. Translation issues of phraseological units used with animal names from English into uzbek. Scientific journal Impact Factor. Issue11. December 2021. B:1061
9. Anvar Obidjon. Baloga qolgan futbolchi. T:2010, B:5
10. Dilshoda Ikromjonovna va boshqalar. Zamonaviy ingliz va o'zbek tillarida frazeologizmlarning kontekstual ma'nosi va tarjima masalalarining xususiyatlari. Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016). B:281
11. Abbosova N. Ingliz tilini chet tili sifatida o'rganuvchi talabalarda frazeologik pragmatic kompetensiyani shakllantirish. Educational Research in Universal Sciences. V:2. Issue:9. 2023. B:143

12.